

- *Rais o‘lmagan... Sen uning o‘g‘lisan-ku, dedi Murod amaki.*
G‘aybarov hayratlandi. Murod amaki soppa-sog‘day tiyrak, osuda boqib turardi.
- *Sen Toshpo‘latsan, - dedi Murod amaki. - Raim raisning o‘g‘lisan, seni tanidim.*
[3; 237]

Otasining o‘limi va undan keyingi jarayonlar G‘aybarovni poklagandan keyin, Arastu ta’biri bilan aytganda, katarsis vazifasini o‘tagandan so‘ng bosh qahramon o‘zligiga qaytadi. O‘zini qayta taniydi. Demak, ushbu qissada ham telba obrazi asar markazida turgan shaxsdagi evrilishlarni ko‘rsatishda muhim personaj bo‘lib xizmat qilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, chin ma’noda yaxshi yozilgan asardagi har bir obraz - alohida olam. Mualliflar o‘z asarlarida nainki ziyoli insonlarni, balki ruhiy xasta personajlarni ham o‘z g‘oyaviy maqsadlariga xizmat qildira olishadi. Telbalarning ham o‘z olami, bizga-da o‘rnak bo‘la oladigan ayrim jihatlari, qolaversa, ular orqali adibning jamiyatga aytar muhim so‘zi bor. Ushbu obrazdan unumli va o‘rinli foydalana olish yozuvchilarning mahoratidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. - T.: Navro‘z, 2019. - B. 153
2. G‘afur G‘ulom. Shum bola. - T.: Qaldirg‘och nashriyoti, 2018. - B. 6,7,
3. Murod Muhammad Do‘s. Galatepaga qaytish yoxud saodatmand G‘aybarov rivoyati. - T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. - B.50, 223, 230, 237,
4. Hoshimov O‘. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. - T.: Davlat nashriyoti, 2018. - B. 5
5. Журакулов У. Назарий поэтика масалалари. Муаллиф. Жанр. Хронотоп. - Т.: Faafur Fu'lom nomidagi нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. - B. 292, 302
6. Арасту. Поэтика. - Т.: Янги аср авлоди, 2011. Б. 40, 55
7. Umida, R. (2024). THE RELEVANCE OF RHYTHM IN PROSE FICTION. *Journal of Modern Educational Achievements*, 1(1), 288-294.
8. Rasulova, U. (2024). Poetic Research in Modern Story-Writing. *SPAST Reports*, 1(1).
9. Tosheva Nilufar. Hozirgi o‘zbek nasrida folklorga oid vositalarning poetik funksiyasi. –Toshkent: Bookmany print nashriyoti, 2024. 26-38-b.

MAKTAB O‘QUVCHILARIDA YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI (5-SINF MISOLIDA)

**Noryigitova Odina Abdualim qizi
O‘zbekiston, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zbek tili ta’limi fakulteti 4-kurs
talabasi**

Annotatsiya: Ona tili sohasidagi ko‘nikma va malakalar o‘quvchilar o‘quv mehnatining zaruriy sharti va vositasidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ona tili darslarida ongli o‘qish va savodli yozishga o‘rganadilar, og‘zaki va yozma

nutqning qonun-qoidalalarini egallaydilar, 5—7-sinflarda esa ushbu jarayon yanada kengroq takomillashib boradi. Ushbu maqolada shu jarayonning pedagogik asoslari 5-sinf o‘quvchilari misolida batafsil yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Lingvistik kompetensiya, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatika, yozma nutq, nutqiy kompetensiya.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ ШКОЛЬНИКОВ (В ПРИМЕРЕ 5-го КЛАССА)

Аннотация: Навыки и компетенции в области родного языка являются необходимым условием и средством учебной работы студентов. Учащиеся младших классов на уроках родного языка учатся осознанно читать и хорошо писать, усваивают правила устной и письменной речи, а в 5-7 классах этот процесс еще более совершенствуется. В данной статье педагогические основы этого процесса подробно объяснены на примере учащихся 5 классов.

Ключевые слова: языковая компетентность, орфография, орфография, лексика, грамматика, письменная речь, речевая компетентность.

PEDAGOGICAL PRINCIPLES OF DEVELOPMENT OF WRITTEN SPEECH IN SCHOOL STUDENTS (IN THE 5TH CLASS EXAMPLE)

Annotation: Skills and competencies in the field of mother tongue are a necessary condition and means of students' educational work. Elementary school students learn to read consciously and write well in their native language classes, learn the rules of oral and written speech, and in the 5th-7th grades, this process is further improved. In this article, the pedagogical foundations of this process are explained in detail on the example of 5th grade students.

Key words: Linguistic competence, orthography, orthography, lexicon, grammar, written speech, speech competence.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187сон qaroriga muvofiq yangi tahrirdagi umumiy o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlari tasdiqlandi [6]. Unda “...umumta’lim fanlarini o‘qitishning uzluksizligi va izchilligini ta’minalash, zamonaviy metodologiyasini yaratish, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi davlat ta’lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o‘quv-metodik majmularining yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilishni tashkil etish” bosh maqsad qilib olingan.

Qarorda ona tili faniga oid quyidagi kompetensiyalar belgilab berilgan:

1. Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozishni o‘z ichiga oladi). Bu kompetensiya bo‘yicha A2 darajadagi sinf o‘quvchilari tinglangan matn, ko‘rilgan lavhadagi asosiy axborot, voqeа-hodisalarни tushuna oladi; so‘z va gaplarni bog‘lagan holda fikrini aniq va ravon yozma bayon qila oladi; 20–25 gapdan iborat ijodiy matn (bayon, insho) yoza oladi; bayonga reja

tuza oladi, epigraf tanlay oladi; matnda badiiy tasvir vositalaridan foydalana oladi va h.k.

2. Lingvistik kompetensiya (fonetika grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatika va uslubiyatga oid bilimlarni o‘z ichiga oladi) [4].

Ona tili darslarida 5-sinf o‘quvchilarining yozma nutqini o‘stirishga qaratilgan mashqlar bajarilganda yuqorida aytilgan nutqiy kompetensiya talablari inobatga olinadi. Ijodiy tarzda matn yarata olish, uni og‘zaki nutqda ravon so‘zlab berish ko‘nikmasini shakllantirish orqali ularning erkin fikrlashini o‘stirish mumkin bo‘ladi.

Odatda, maktablardagi an’naviy ona tili darslarida o‘qituvchilar bolalarga insho, bayon yoki matn tuzish topshirig‘ini berishadi. Ingliz metodist olimlari ularni tekshirishga kelganda matnni uch jihatdan ko‘rib chiqish kerakligini ta’kidlashadi hamda bu boradagi ayrim kamchiliklarni izohlaydi:

1. Matnning mazmuni.
2. Gaplarning mantiqiy bog‘langanligi, qurilishi.
3. Tildagi grammatik qoidalarga amal qilingaligi.

Avvalo, berilgan insho yoki bayonning mazmun jihatdan mukammal va qiziqarli ekanligi muhimdir, qolganlari keyingi darajalarda turadi. Oddiy o‘qituvchilar esa mazmunning ahamiyatini qay darajada ekanligini bilib turishsa ham, o‘quvchining grammatik xatolariga ko‘proq e’tibor qaratadi [2].

Tadqiqotchilarning kuzatishlariga ko‘ra, o‘quvchilar fikrini yozma bayon qilishda bir so‘zni takror qo‘llash yoki so‘zdan noo‘rin foydalanish, tasviriy vositalarni, qo‘shma gaplarni qo‘llay olmaslik kabi xatolar qilishadi. Shuningdek, quyidagi umumiylamchiliklarga yo‘l qo‘yishadi: “Matnda mavzuga uyg‘un holda asosiy fikrni yoritib bera olmaslik; so‘z tanlashdagi xatoliklar, ma’nodosh so‘zlardan foydalana olmaslik; bitta gap yoki yondosh gaplarda bir so‘zni o‘rinsiz takrorlash; gap tuzishda so‘zlar tartibiga e’tibor bermaslik, gap bo‘laklari o‘rnini chalkashtirish [3]. Aslida, ona tilini ma’lum darajada o‘zlashtirishimiz nazariy qonun-qoidalarni yodlashimizga qarab emas, lug‘at boyligimiz, so‘z va iboralarning mazmununi bilishimizga, ularni amalda, ya’ni og‘zaki va yozma nutqimizda ishlata olishimizga qarab belgilanadi. Bola maktabda tilshunoslik fani qoidalarni yodlashdan ko‘ra til me’yorlarini bilish, o‘z fikrini og‘zaki bayon qilishga, mustaqil mushohada yuritish, yozma matnlar yaratishga ko‘proq ehtiyoj sezadi. Shuning uchun maktabda ona tili ta’limi ortiqcha nazariy talqinlar, ta’riflardan ko‘ra til me’yorlari, nutqqa, so‘z boyligini oshirishga qaratilmog‘i kerak. Tilni o‘zlashtirishimiz nazariy ta’rif-u tavsiflarga emas, lug‘at boyligimiz, so‘z va iboralarning mazmunini bilishimizga, ularni nutqda, yozuvda o‘rinli ishlata olishimizga qarab belgilanadi. O‘quvchilarning ko‘pchiligi uyda kimningdir yordamida matn tuzishadi, undagi so‘zlarning grammatik vazifasiga e’tibor bera olmaydi, yoki bunday qo‘sishmcha topshiriq ularni chalg‘itadi. Shunday ekan, matn tuzish uchun berilgan topshiriqlarda o‘quvchilarning diqqatini bir tomoniga yo‘naltirgan mavzularga qaratish lozim, ya’ni ular uchun qiziq bo‘lgan sarlavha asosida matn yaratish topshirig‘i berilishi va unda, asosan, mazmunga e’tibor

qaratishlari kerakligi aytilishi lozim. Nutqni o'stirishda ularning lisoniy malakasini va qiziqishlarini hisobga olgan holda o'quv topshiriqlari berib boriladi.

Sinfda o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar ularning mantiqiy jihatdan o'ylashga majbur qila olishi lozim. Qolaversa, ularning tushunish malakasini hisobga olgan holda o'qib tushunish va eshitib tushunish mumkin bo'lgan turli topshiriqlarni saralab berish mumkin. Masalan, hikoya (ertak)ning qisqartirilgan variantini o'qidingiz. Shu asosda hikoya (ertak)ni kengaytiring; audioyozuv orqali eshitgan matnimizning mazmunini ikki yoki uchta gap bilan ifodalang, ya'ni uni qisqartiring; eshitgan hikoyangizga mos sarlavha tanlang va hokazo. O'qituvchi o'quvchilar hukmiga havola qilinayotgan matnning ularga qanchalik ta'sir etishi, uning qanday jarayonlar orqali tushunilishini inobatga olishi lozim.

Xulosa: O'quvchilarning yozma nutqiga quyidagicha talablar qo'yish zarur:

1. Har bir so'z, har bir jumla mazmunni va muallif maqsadini ochishga xizmat etishi, shuningdek, nutq ixcham, izchil va mantiqli ifodalanishi zarur. 2. Yozma nutqdagi fikr qiziqrarli, ifodali, uslubiy jihatdan sodda va ravon bayon etilishi kerak. 3. Bildirilgan fikrlar asosida zarur xulosa chiqarishga alohida e'tibor berish zarur.

Yozma nutqning mohiyatli chiqishi uchun material yig'ilgandan so'ng ularni sistemalashtirish, reja tuzish, ishning xomaki nussxasini tayyorlash, matn ustida qayta ishlab, takomillashtirish va oqqa ko'chirish zarur. Yozma nutqning sifati fikrning mustaqil ravishda bayon etilishi bilan belgilanadi. Nutqning ikkinchi turi, ya'ni yozma nutqni rivojlantirish og'zaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Shu sababli darslarda boshqa ko'nikmalarga nisbatan yozma nutqni rivojlantirishga qaratilgan metodlarni ko'proq qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bobokalonov R., Ne'matova G. Ona tili o'qitishning yangi texnologiyasi haqida. – Toshkent: 1998. – 30 b.
2. Mahmudov N. va boshqalar. Ona tili. Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. Ma'naviyat. – Toshkent: 2016. – 221 b.
3. Mengliyev B., Sayfullayeva R. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: 2007. 36–49 b.b.
4. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq nashriyot matbaa-konserni, 1997. B 15-17
5. Penny Ur. A Course in language teaching (practice and theory).-Cambridge University Press, 1999. P 73
6. www.assc.uz